

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TURDALIEVA SHAHLO HUSNUTDINOVNA**

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI NUTQIDA OG'IR NUQSONLARI  
BO'LGAN BOLALARDA O'QISHGA OID DASTLABKI  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.03 – Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falcafa doktori (PhD)  
diceratatsiyaci avtoreferati mundarijaci**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

**Turdalievа Shahlo Xusnutdinovna**

Maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda  
o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish ..... 3

**Турдалиева Шахло Хуснутдиновна**

Развитие начальных навыков чтения у детей дошкольного возраста  
с тяжелыми нарушениями речи ..... 24

**Turdalievа Shakhlo Khusnutdinovna**

Development of initial reading skills in children with severe speech disorders  
of preschool age ..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 47

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TURDALIEVA SHAHLO HUSNUTDINOVNA**

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI NUTQIDA OG'IR NUQSONLARI  
BO'LGAN BOLALARDA O'QISHGA OID DASTLABKI  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

**13.00.03 – Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/672Ped raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abidova Nilufar Zakirovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.

**Rasmiy opponentlar:**

**Xakimova Muhabbat Fayziyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xamidova Muborak Ubaydullaevna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy, Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi.

**N.A. Muslimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, pedagoigika fanlari doktori,  
professor

**R.G. Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, pedagoigika fanlari nomzodi,  
dotsent

**Z.N. Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, pedagoigika fanlari doktori,  
Professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabga tayorlash jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" reja-dasturi<sup>1</sup> asosida jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatning teng huquqli a'zolari safiga qo'shilishlariga yordam berish asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limga munosabatlarini hisobga olish hamda ularni kamsitishning turli xil shakllariga qarshi kurashish, ta'lim olish huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni bartaraf etish, bolalarning ijtimoiy moslashuvining samaradorligini aniqlash bo'yicha yirik amaliy loyihalarni hayotga tatbiq etish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularga o'z vaqtida logopedik korreksion yordam ko'rsatish, bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish usullarini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning natijadorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni psixologik, ijtimoiy va somatik darajalarini takomillashtirish, ko'rish, kinestik va eshitish analizatorlarini kuchaytirish, tibbiy-psixologik-pedagogik, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning yangi, innovatsion modellarini yaratish, jamiyatga integratsiyalash va ijtimoiylashuvini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan taraqqiy etishi, ijtimoiy munosabatlarda demokratik hamda insonparvarlik tamoyillarining ustuvor bo'lishiga erishishi yuqori axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, muayyan soha bo'yicha nazariy, amaliy bilimlarni puxta o'zlashtirgan, kasbiy faoliyatda yutuqlarga erisha oladigan kadrlarni tayyorlanishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish"<sup>2</sup> ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning pedagogik imkoniyatlari ko'payadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2021 yil 25 yanvardagi PQ-3775-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish

<sup>1</sup> Дакарские рамки действий. Образование для всех: выполнение наших общих обязательств // Текст, принятый Всемирным форумом по образованию Дакар, Сенегал, 26-28 апреля 2000 г. – Париж, 2000. – 18 с.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. - <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2017 yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Alohida yordamga muxtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida nutqni rivojlantirishning ayrim jihatlari N.Z.Abidova, Sh.D.Aripova, M.Yu.Ayupova, L.R.Muminova, N.S.Musaeva, D.A.Nurkeldieva, Z.I.Sabirova, Sh.E.Taxtiyorova, M.P.Xamidova, M.F.Hakimova, D.B.Yakubjanovalar; alohida yordamga muxtoj bolalarning yozma nutq kamchiliklari muammolarini tadqiq qilish Z.M.Axmedova, Z.N.Mamarajabova, V.S.Raxmanova, I.S.Xamraeva, tomonidan tadqiq etilgan.

O'qish va yozish qobiliyatlari mexanizmlarining birligi va markaziy nerv tizimi bilan o'zaro bog'liqligi, korreksion pedagogik ishni tashkil qilish B.G.Ananov, P.K.Anoxin, Ye.A.Bugrimenko, L.S.Vigotskiy, T.G.Yegorov, A.R.Luriya, G.A.Tsukerman, D.B.Elkoninlar; kichik maktab yoshidagi bolalarning o'qish ko'nikmasini o'zlashtirishga tayyorligining neyrofiziologik, psixologik va lingvistik tashkil etuvchilarida uchraydigan nuqsonlarni korreksiyalash A.N.Kornev, R.Ye.Levina; kichik maktab yoshidagi bolalarning o'qish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'qishning ham texnik, ham mazmuniy tomonlari, disleksiyani bartaraf etish, o'qish kompetensiyasini shakllantirish O.B.Inshakova, N.Y.Kiseleva, M.N.Rusetskaya tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Jahonda bolalarni o'qishga o'rgatish, ularda o'qish ko'nikmasini shakllantirish texnologiyalarini optimallashtirish Berg R., Bums P., Roy B., Ross Ye., Dirk J., Bakker., Nishvaki K., Patel R., Krisher C.C. tomonidan tadqiq qilingan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-2017927124 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan(Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga

zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.).

**Tadqiqotning maqsadi** maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning korreksion-pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish didaktik modelini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini differensial yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahridagi 289-, 480-, 560-sonli, Toshkent viloyati Yangiyo'l shahridagi 3-sonli, Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi 31-, 57-sonli, Uychi tumanidagi 1-sonli, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi 10-sonli, Samarqand shahridagi 60-, 78-sonli ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan jami 140 nafar dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tadqiqot mavzusiga oid ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, sotsiometrik metodlar (kuzatish, suhbat), korreksion-pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil natijalarini umumlashtirish usullaridan (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezonini hisoblash) foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning korreksion-pedagogik imkoniyatlar individual mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan o'yinli topshiriqlarni kiritish, fonematik idrokni rivojlantirish hamda korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik mikromuhitni yaratish asosida aniqlangan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish modeli tovush-harflar bilan tanishish va o'qilgan so'zning ma'nosini anglashga yo'naltirilgan o'qilgan

so'zlarni o'qish va idrok etish bosqichlarining mazmuni belgilash, pragmatik sharoit yaratish hamda individual ta'lim traektoriyasiga funksional uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini differensial yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari nutq-eshituv, bilish jarayoni, ko'ruv idroki, motorika, og'zaki nutq hisobga olgan holda, nutq kamchiliklarini bartaraf etishga differensial yondashuv asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalari rivojlantirish samaradorligi korreksion-rivojlantiruvchi ish yo'nalishlarini aniqlash, o'qishga oid dastlabki ko'nikmalar rivojlanganlik darajalari, ko'rsatkich va mezonlarini bosqichma-bosqich aniqlash hamda logopedik tashxislash asosida takomillashtirgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni mazmuni aniqlangan, shakl, metod va vositalari ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini ta'lim jarayoniga joriy qilish bo'yicha metodik qo'llanma nashrga tayyorlangan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning korreksion-rivojlantiruvchi muhitining didaktik ta'minoti differensial yondashuvga asoslangan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat ta'lim talablari, rivojlantiruvchi ta'lim muhiti usullarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida korreksion mashg'ulotlar majmuasi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda qo'llanilgan yondashuv, usullar, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarning o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlanganlik darajasini aniqlash metodikasi takomillashtirilgani; ularning muloqotga kirishish darajalari aniqlangani va o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgani, nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishni zamonaviy ta'lim metodlari asosida tashkil etishning metodik imkoniyatlari takomillashtirilgani, nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish

bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgani va ular asosida korreksion mashg'ulotlar kompleksi yaratilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati taklif qilingan metodika, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan dastur, qo'llanmalar, metodik tavsiyalardan maktabgacha ta'lim xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar yaratish, oliy ta'lim muassasalari va maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilingan o'quv seminarlarining samaradorligini oshirish hamda ota-onalarga metodik yordamni takomillashtirish maqsadida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktabgacha yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlar ketma-ketlik assotsiativ jihatlari va yozish o'qishni leksemalarga ajratish hamda o'rganishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sintaktik va semantik o'qish ko'nikmalariga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan oid takliflar "Uzluksiz ta'lim va maxsus pedagogika" fani darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7557/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalari imkoniyatlari kengaygan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish modeli tovush-harflar bilan tanishish va o'qilgan narsaning ma'nosini tushunib, bo'g'inlardan so'zlar tuzish, o'qilgan so'zning ma'nosini anglashga yo'naltirilgan o'qilgan so'zlarni o'qish va idrok etish bosqichlarining mazmuni belgilash, pragmatik sharoit yaratish hamda individual ta'lim traektoriyasiga funksional uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Uzlyuksiz ta'lim va maxsus pedagogika" darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7557/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik mazmuni boyitilgan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini differensial yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari nutq-eshituv, bilish jarayoni, ko'ruv idroki, motorika, og'zaki nutq hisobga olgan holda, nutq kamchiliklarini bartaraf etishga differensial yondashuv asosida takomillashtirishga oid takliflar "Uzlyuksiz ta'lim va maxsus pedagogika" darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7557/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini

rivojlantirish imkoni kengaytirilgan;

maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalari rivojlantirish samaradorligi korreksion-rivojlantiruvchi ish yo'nalishlarini aniqlash, o'qishga oid dastlabki ko'nikmalar rivojlanganlik darajalari, ko'rsatkich va mezonlarini bosqichma-bosqich aniqlash hamda logopedik tashxislash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Uzlyuksiz ta'lim va maxsus pedagogika" darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7557/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim mazmuni, shakllari va metodlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 xalqaro va 2 respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shulardan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 178 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**"Kirish"** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amalda joriy etilishi holati, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida logopediyada o'qish nutq faoliyatining bir turi sifatida o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari, o'qishga oid dastlabki ko'nikmasini o'zlashtirishning umumiy qonuniyatlari va shartlari, nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish metodikalarining tahlili masalalari bayon etilgan.

A. Madvaliev tahriri ostida nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "o'qimoq" so'z, jumla, gap, matnning yozma shaklning ichida yoki og'zaki ifodalamoq; she'riy yoki nasriy matni yoddan aytish. Diqqat bilan, tahlil qilib mutolaa qilish degan ma'nolarni bildiradi. Shuningdek, "O'qish yozish" esa o'qish-yozish, savod degan ma'noni anglatishi qayd etilgan.

Yozma nutq - bu yozish va o'qishni operatsion tarkibiy qism sifatida birlashtirgan shunday tuzilma bo'lib, fikrni yozish uchun bola uni to'liq shaklda

leksemalarga ajratishi va keyin ularning har birini yozuvning moddiy mohiyati bilan aks ettirishi kerak.

O'qish - bu yozma matn bilan ishlash amaliyoti va tartiblari hamda matn bilan ishlashning bevosita jarayoni bo'lib, undan ma'lumot olish, matnni idrok etish va tushunishga qaratilgan. Keng ma'noda, bu har qanday ramziy tizimdan (Brayl belgilari, nota yozuvlari va boshqalar) ma'lumot olish jarayonidir.

O'qish faqat yozma belgilarni mos keladigan tovushlar bilan bog'lash bilan cheklanmaydi, bu murakkab kognitiv jarayon bo'lib, unda yuqori aqliy funksiyalar bevosita ishtirok etadi. O'qish jarayoni fonetik jarayonni ham, semantik jarayonni ham o'z ichiga oladi, ya'ni o'qilgan narsani tushunish, yozma nutqni og'zaki tilga tarjima qilish esa alifbo, logografik va ideografik yozish uchun sezilarli darajada farq qiluvchi yozuv tizimiga bog'liq. O'qish tilni o'zlashtirish, muloqot qilish, axborot va fikr almashish vositalaridan biridir.

Dissertatsiyada o'qishga oid dastlabki ko'nikmalar kelajakda muvaffaqiyatli mustaqil o'qish uchun asos yaratadi, degan xulosaga kelingan. O'qishga oid dastlabki ko'nikmalar tilning tovush tuzilishini bilish, bosma matnni tushunish va so'zlarni dastlabki o'qish bilan bog'liq fonologik xabardorlik, yozma matnning mazmunini tushunish uchun dekodlash mahorati, vizual gnozis va praksis, og'zaki nutq hamda aqliy operatsiyalar, sintaktik va semantik o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Psixologik jihatdan o'qish nutq faoliyatining eng muhim turlaridan biridir. Shu munosabat bilan dissertatsiyaning mazkur bobida o'qish ko'plab tarkibiy qismlarga ega bo'lgan murakkab hodisa sifatida qaraldi. Amerikalik tadqiqotchilar P.Berne, D.Roy, E.Ross fikricha, o'qish jarayoni belgilarni qabul qilish (sezgi va hissiy jihat), belgilar va so'zlarni talqin qilish (idrok jihati), so'zlarning satr, mantiqiy va grammatik modellariga rioya qilish qobiliyati (ketma-ketlik jihati), so'zlarni mustahkamlash uchun ularni amaliy tajriba bilan bog'lash (tajriba jihati), xulosa chiqarish va materialga baho berish (tafakkur jihati), ilgari o'rgangan narsalarini tushunish, yangi g'oyalar va faktlarni o'z ichiga olish (o'rganish jihati), belgilar va tovushlar, so'zlar va ularning ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish (assotsiativ jihat), o'qishga ta'sir qiladigan shaxsiy qiziqishlar va pozitsiyalar bilan shug'ullanish (affektiv jihat) kabi bir qator jihatlarni ifodalaydi.

E.E.Shuleshko yozma, ya'ni ko'zga "ko'rinadigan" nutqni og'zaki nutqqa eng yaqin deb hisoblab "bu ikkala nutq ham og'zaki nutqning turlari" ekanligini ta'kidlagan. Yozma va og'zaki nutq bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yozma nutqdagi grafik belgisi bu fonemadir deb ta'kidlagan.

A.R.Luriya o'qishni impressiv nutqning maxsus shakli, yozuvni esa ekspressiv nutqning maxsus shakli deb ta'riflagan.

Respublikamizda yozma nutq kamchiliklari ham qator olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan.

Z.M.Axmedova tadqiqot natijalariga asoslanib, umumta'lim maktabi o'quvchilarida disgrafiyani bartaraf etishda logopedik ish tizimining muhim mezonlarini ochib bergan. Olima "orfografik ko'nikmalarni bosqichma-bosqich

shakllantirish bo'yicha differensiallashgan korreksion-logopedik ishni tashkil etish, nutqida kamchiligi bo'lgan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari yozma nutqidagi buzilishlarning oldini olish va tuzatish" uchun metodik ko'rsatmalar, tavsiyalarni bayon etgan. Z.M.Axmedovaning fikricha, bolalarda dastlabki yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, keyinchalik maktab ta'limi jarayonida o'quvchilarning savodga o'rgatish jarayonini samaradorligi belgilab beradi.

Z.N.Mamarajabova fikricha, "o'qishga o'rgatishning an'anaviy tizimi o'quvchilarni reproduktiv faoliyatiga asoslanganligini hisobga olingan holda, mazkur korreksion-pedagogik tizim o'quvchilarni bilish faoliyatini samarali o'zgartirish, nutqiy rivojlantirish va ularni kitobxon sifatida shakllantirishni ko'zda tutadi".

I.S.Xamraeva ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishini olib borgan. Olimaning fikricha, "o'quvchilarida o'qish ko'nikmasini shakllantirishda korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim bilan bir qatorda zamonaviy yondashuvlarga tayanish lozim. Zamonaviy metodik yondashuvlarni aniqlash, tanlash va amaliyotga moslashuvchan tarzda variativlikka ustuvorlik berish asosida joriy etish maqsadida korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirishga ehtiyoj mavjudligi dastlabki kuzatishlar va nazariy manbalarni tahlil qilish orqali aniqlanadi".

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, dizartriya og'ir nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilik sanaladi. Dizartriya markaziy xarakterdagi organik buzilishlarning oqibati hisoblanib, nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog'liq holdagi buzilish bo'lib, unda tovushlar talaffuzi, fonematik idrok qiyinchiliklar kuzatiladi.

C.J.Achilova dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda bolaning ilk rivojlanish davrlari, umumiy va oiladagi rivojlanish holatlarini inobatga olgan holda tovushni nutqqa qo'yish, tovushni nutqda mustahkamlash, tovushni nutqda boshqa tovush bilan farqlash kabi ishlar olib borish zaruratini ta'kidlaydi.

M.B.Mamatova ishlarida dizartriya nutq kamchiligining patogenezi, o'ziga xos klinik belgilarining namoyon bo'lishi, shu bilan birga patogenetik tomondan asoslangan logopedik ish metodikasini yaratishni tavsiya etadi.

Z.I.Sobirova dizartriyani tasniflashda jarohatlanish o'chog'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyani bulbar, psevdobulbar, qobiqli dizartriya, qobiq osti va miyachali dizartriya xususiyatlarini yoritib beradi. Olima dizartriyani mushak tonusining neyromotor boshqaruvining buzilishi natijasida nutqda tovushlar oqimining prosodik komponentlarining zararlanishi, deb ta'riflaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotida "dizartriya - nutqning talaffuz tomonining buzilishi, nutq harakat analizatorining markaziy qismining shikastlanishi va artikulyar apparatlar mushaklarining innervatsiyasining buzilishi natijasida nutq mushaklarida tonusining buzilishi, artikulyatsiya apparati mushaklarining falaj hamda pareziyasi tufayli ixtiyoriy harakatlarning cheklanganligi, ovoz va nutqiy nafas olishning buzilishi" sifatida qabul qilindi va bu holat o'qishga oid dastlabki

ko'nikmalarni o'zlashtirish, o'qilgan matnni tushunish jaryonini qiyinlashtiradi, degan xulosaga kelindi.

Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning individual xususiyatlarini hisobga oladigan maxsus pedagogik yondashuvlar va usullardan foydalanishni talab qiladi. Mazkur bobda yuqorida bildirilgan fikrlar, olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy korreksion-pedagogik imkoniyatlar keltirildi.

Ta'limning o'yinga asoslangan usullari. Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning o'quv jarayonida o'yin faoliyati muhim rol o'ynaydi. Interaktiv o'yinlar, fonema va harflarni o'z ichiga olgan o'yinlardan foydalanish bolalarga materialni osonroq tushunishga yordam beradi. Masalan, tovushlar va harflarni moslashtirish, harflardan so'zlarni yaratish uchun o'yinlar va boshqalar. Rolli o'yinlar matnni o'qish o'yin harakatlari bilan bog'liq bo'lgan rolli vaziyatlarni yaratish orqali bolalarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Multimedia resurslaridan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ta'lim dasturlari, interfaol multimedia ilovalari vizual va eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi elementlarni o'z ichiga oladi. Animatsion filmlar va o'quv videolari o'qiganlarni mustahkamlashga yordam beradi va mazmunni o'qish va tushunishni rivojlantiradi.

Fonematik idrokni rivojlantirish. Ovozni farqlash mashqlari bolalarni tovushlarni aniqlash, farqlash va qo'shishga undaydigan o'yinlar va mashg'ulotlar eshitish xotirasi va diqqatini kuchaytirishga yordam beradi.

Ovoz chiqarib o'qish va muhokama qilish. Ovoz chiqarib o'qish ko'plab ta'lim imkoniyatlarini beradi. Birgalikda o'qishda logoped o'qishda, savollar berishda, o'qiganlarini muhokama qilishda faol ishtirok etishi kerak, bu esa bolalarga matnni tushunish va talqin qilishni rivojlantirishga yordam beradi. Matn tarkibni muhokama qilishda logoped bolaga o'qiganlarini qayta aytib berish yoki muhokama qilish uchun vazifalar qo'yadn, bu tushunishni yaxshilaydi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti. Ijobiy ta'lim muhitini yaratish motivatsiyani oshirishga yordam beradi. O'quv materiallarining xilma-xilligi, turli xil kitoblardan (rasmlar, she'rlar, ertaklar bilan) foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va ma'rifiy qiladi. Muvaffaqiyat va faollik uchun mukofotlar tizimidan foydalanish muhim, bu bolalarda o'quv jarayoniga ishonch va qiziqishni his qilish imkonini beradi.

Ota-onalarni o'quv jarayoniga jalb qilish. Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda oila asosiy rol o'ynaydi. Oilaviy tadbirlar logoped ota-onalar uchun uyda o'qish ko'nikmalarini qanday qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni o'rganish uchun seminarlar yoki maslahatlar tashkil qiladilar. Ota-onalar birgalikda o'qish uchun o'yin materiallari va kitoblardan foydalanishlari mumkin, bu esa bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Dissertatsiyada dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid

dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish - ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonida dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etish, oldini olish hamda individual-differensialashtirilgan xarakterda amalga oshirish jarayoni deb ta'riflangan.

Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning korreksion-pedagogik imkoniyatlari xilma-xil bo'lib, logopelardan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Individual mashg'ulotlar, o'yin usullari, zamonaviy texnologiyalar, fonematik idrokni rivojlantirish va oilani korreksion-rivojlantiruvchi ish jarayoniga jalb qilish muvaffaqiyatli o'rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Bunday usullar bolalarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiylashuviga va shaxsiy o'sishiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish modeli, texnologiyalari, dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim pedagogik shart-sharoitlari bayon etilgan.

Muammoga oid nazariy va uslubiy adabiyotlar tahlili, bizgacha olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili natijasida 6-7 yoshli dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarni rivojlantirish modeli takomillashtrildi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishda maqsadning qo'yilishi, jarayonning tashkil etilishi va natijaning aniqlanishi komponentlari asosida ishlab chiqilgan modeli olib borilgan tadqiqot ishining asosiy negizi va omillarini o'zida birlashtirgan. Ushbu model tarkibiy-funksional diagramma shaklida taqdim etildi (1-rasmga qarang).

Maktabgacha yoshdagi bolalarga o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish modeli maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o'zbek tilining yozma va og'zaki nutqi hodisalari va tuzilishi haqida dastlabki tasavvurni shakllantirishga imkon beradigan bilim va ko'nikmalar tizimini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi va maqsadli, metodologik, tashkiliy-ta'limiy, natijaviy komponentlarni qamrab oldi.

Modelning maqsadli komponenti maktabgacha yoshdagi og'ir nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadini belgilaydi. Maqsad kutilgan natijani aniqlaydi va asosiy o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, nutq faolligini rivojlantirish, o'qilgan matnni tushunishni rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvi uchun muhim bo'lgan muloqot ko'nikmalarini rag'batlantirish, o'rganishga nisbatan motivatsiyani rivojlantirish vazifalarini belgilaydi.

Metodologik komponent maktabgacha yoshdagi og'ir nutq nuqsoni bo'lgan

bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini loyihalashtirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlovchi yondashuvlar, tamoyillar va korreksion-rivojlantiruvchi ish yo'nalishlari keltirilgan.

Tashkiliy-ta'limiy komponent ta'lim mazmuni, shakli, metodlari, texnologiyalari, vositalari va dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonining bosqichlarini o'z ichiga olagan.


Mazkur modelning eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Natijaviy komponent o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, ta'lim jarayoni natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi. Natijaviy komponent – maktabgacha yoshdagi og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalari rivojlanganlik darajalari ko'rsatkich va mezonlarini (yuqori, o'rtadan yuqori, o'rta, past), dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning bilimi, ko'nikma, malakalari va faoliyat natijalarini baholashni o'z ichiga oladi.

Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha korreksion-pedagogik ishlar tizimi dastlabki o'qish malakalarini shakllantirish (tahliliy), birgalikda o'qish (tahliliy-sintetik), ko'nikmalarni mustahkamlash (sintetik) bosqichlari asosida amaliyotga tatbiq etildi.

Dastlabki o'qish ko'nikmalarini shakllantirish (analitik) bosqichda dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda harf va tovushlar bilan tanishtirish, mayda motorikani rivojlantirish, bo'g'in hosil qilish ko'nikmasini shakllantirishga doir korreksion rivojlantiruvchi ishlar olib borildi.

Birgalikda o'qish (analitik-sintetik) bosqichda bolalar uchun nashr etilgan rasmi kitoblardan, ko'p funksiyali, o'yinli, loyihalash texnologiyalardan foydalanildi. Bu jarayonda pedagog matnni ovoz chiqarib o'qiydi, bola esa matnni xatcho'p yordamida kuzatib bordi hamda o'qilgan matnni tushunish, matnni muhokama qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli viktorinalar o'tkazildi.

Ko'nikmalarni mustahkamlash (sintetik) bosqichida muloqot va kinestetik texnologiyalar foydalanildi. Ushbu jaryonda o'qilgan matnlar asosida rollarga bo'lib hikoya qilish bilan birgalikda bolalar tomonidan uydirilgan hikoyalarni tuzishga qaratilgan o'yin vaziyatlar yaratildi. Bolalarning so'z boyligini kengaytirish maqsadida yangi so'zlar va nutqiy konstruksiyalarni kiritildi.



1-rasm. Maktabgacha yoshdagi og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda dastlabki o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish modeli.

Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ko'p funksiyali texnologiyalar, o'yin texnologiyalari, loyihalash texnologiyalari, muloqot va kinestetik texnologiyalar qo'llaniladi.

Ko'p funksiyali texnologiyalar korreksion vazifalarini amalga oshirish uchun variativ topshiriqlar, turli ob'ektlar, rasmlar, interaktiv o'yin va o'yinchoqlardan foydalanish asosida amalga oshirildi. Masalan, artikulyatsion va mayda motorika ko'nikmalarini, fonemik idrok, og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan logoertaklardan foydalanildi. Shuningdek, axborotni samarali eslab qolish, saqlash va takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mnemonikadan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Ko'p funksiyali texnologiyalardan lepbuklar tovush talaffuzi kamchiliklarini tuzatish, fonetik-fonematik jarayonlarni takomillashtirish, leksik va grammatik toifalarni shakllantirish, nutq va motorika ko'nikmalarini rivojlantirish muammolarini hal qilishga yordam beradigan interaktiv papkalar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

O'yinli texnologiyalari nutqni tahlil qilish, so'z yasash va qofiyalashga asoslangan o'yinlar fonematik idrok va so'z boyligini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin texnologiyalari nutq apparati xususiyatlarini va dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv idrokini hisobga oladigan innovatsion o'qitish usullarini taklif qiladi. Masalan, dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik idroknini rivojlantirishda "Ovozli o'yin" va "Juftlashgan vazifalar" texnologiyalaridan foydalanish samarali natijani kafolatladi. Ovozli o'yin texnologiyasining maqsadi dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda turli xil tovushlarni tinglash va ovoz "belgilari" asosida uni kimga yoki nimaga mansub ekanligini taxmin qilish hamda javobni asoslash, fonematik idrok ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Natijada dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishning tarkibiy qismi bo'lgan fonematik idroknini rivojlantirish uchun ijodiy muhitni vujudga keltirishga, ta'lim jarayonini bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga erishildi.

"Juftlashgan vazifalar" o'yin texnologiyasi maqsadi dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda ijtimoiy o'zaro ta'sir yordamida o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida o'quv materiallari juftliklarning o'zaro birlikdagi harakatlari asosida o'zlashtirishga erishish, hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish. Natijada dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishini ta'minlandi, madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish asosida o'qishga oid dastlabki ko'nikmalari rivojlantirildi.

Loyihalash texnologiyalari dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vositadir. Ushbu texnologiyalar faol ishtirok etish tamoyiliga asoslanadi, bu esa o'quv jarayonlarini har bir bolaning individual xususiyatlariga moslashtirishga imkon beradi. Chizish,

modellashtirish va hikoya qilish kabi proyektiv usullar bolalar o'z fikrlari hamda his-tuyg'ularini ifoda eta oladigan vaziyatlarni yaratadi va shu bilan bolalarning til faolligini rag'batlantiradi. Loyihalash texnologiyalarining tarkibiy qismlarining mazmuni va funksiyalari “Tovushlar musavviri” va “Kichik muharrir” texnologiyalarida aks etdi.

“Tovushlar musavviri” texnologiyasining maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali grafik materiallar haqidagi bilimlarga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish, mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakatlarni rivojlantirish. Natijada bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishning tarkibiy qismi grafik materiallar haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun ijodiy muhiti yaratildi.

“Kichik muharrir” texnologiyasining maqsadi maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qish motivatsiyasini rivojlantirish. Ushbu texnologiya o'rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshirishga qaratilgan. Natijada bolalarda jamoa bilan ishlash, muloqot qilish, loyihalash, ijodiy tafakkur, motor va sensor faoliyatning rivojlantirish asosida o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarni takomillashdi.

Muloqot va kinestetik texnologiyalar dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish individual yondashuvni va imo-ishoralar, mimika va vizual materiallardan foydalanish kabi muloqot texnologiyalari ham asosiy rol o'ynaydi. Dizartriya nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda birlamchi nutq kamchiliklarini bartaraf etish va o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi oshirish maqsadida logopedik massaj, sensor integratsiya, bioenergoplastika, musiqali terapiya, bioakustik korreksiya texnologiyalari va “Sehri xaltacha”, “Ko'zgu”, “Rassom”, “Qofiyalar” mashqlaridan samarali foydalanildi.

